



FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

ISSN: 2181-1776

Eshankulov Xamrokul

Jizzax davlat pedagogika institute rus tili va uni o'qitish metodikasi
kafedrası V/b dosenti

O'RTA TA'LIM MUASSASALARINI BOSHQARUV MEXANIZMLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada ta'lim tizimining umumiy boshqaruvini Vazirlar Mahkamasi amalga oshirishi, metodist o'qituvchilar maktabini tashkil etish asosida uzluksiz malaka oshirish tizimini joriy etish yo'nalishlarida Xalq ta'limi vazirligi tomonidan keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilayotganligi, o'rta ta'lim muassasalari rahbarlarining asosiy funksiyasi hamda o'rta ta'lim muassasalari rahbarlari boshqaruv faoliyatlari davomida o'zlari rahbarlik qilayotgan ta'lim muassasalarining faoliyatlarini nazorat qilishi haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: ta'lim tizimi, umumiy boshqaruv, metodist o'qituvchilar, o'rta ta'lim muassasalari, chora-tadbirlar, rahbarlar.

O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi qonuni hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida» 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son qarori talablari asosida ta'lim sifatini ijtimoiy-iqtisodiy sohalarda olib borilayotgan islohotlar talablariga muvofiq yuksak darajaga ko'tarish, shuningdek uzluksiz ta'lim tizimida ta'lim sifatini nazorat qilishni yanada takomillashtirish, kadrlar tayyorlash sifati va o'quv jarayoni samaradorligining xolisona baholanishini nazorat qilish sohasida davlat siyosatini amalga oshirish maqsadida «O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi ta'lim sifatini nazorat qilish Davlat inspeksiyasi faoliyatini tashkil etish to'g'risida» O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 18-iyuldagi 515-sonli qarori qabul qilindi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev rahbarligida 2017-yil 2-avgust kuni o'tkazilgan «Umumta'lim maktablari va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari

o`rtasida o`zaro integratsiyani ta`minlagan holda bosqichma-bosqich 11 yillik majburiy o`rta ta`limni joriy etish masalalari haqida”gi majlisda belgilab berilgan vazifalar ijrosini ta`minlash va 2017-2018o`quv yilidan boshlab o`rta ta`lim maktablari 10-11 sinflarida dars beradigan fan o`qituvchilarining kasbiy bilimlarini yangilash va chuqurlashtirishni tashkil etish, shuningdek metodist o`qituvchilar maktabini tashkil etish asosida uzluksiz malaka oshirish tizimini joriy etish yo`nalishlarida Xalq ta`limi vazirligi tomonidan keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.


Ta`lim tizimining umumiy boshqaruvini Vazirlar Mahkamasini amalga oshiradi. Xalq ta`limi vazirligi–maktabgacha, maktabdan tashqari muassasalar va umumiy ta`lim maktablari faoliyat iuchun mas`uldir.

O`zbekiston Respublikasi Xalq ta`limi vazirligini tashkiliy tuzilmasi



Oliy va o`rta maxsus ta`lim vazirligi– respublikada oliy va o`rta maxsus, kasb-hunar ta`limiga rahbarlik qiluvchi davlat boshqaruv organi hisoblanadi. Vazirlik o`z faoliyati bo`yicha O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga hisob beradi. Vazirlik tizimiga O`rta maxsus, kasb-hunar ta`limi markazi, Oliy va o`rta maxsus ta`lim, kasb-hunar ta`limini rivojlantirish markazi va idoraviy mansub oliy o`quv yurtlari kiradi.

O`zbekiston Respublikasi Oliy va o`rta maxsus ta`lim vazirligini tashkiliy tuzilmasi



O`rta ta`lim muassasalari rahbarlarining asosiy funksiyasi, ta`lim muassasasi oldiga qo`yilgan maqsadlarga erishishda, ta`lim muassasasi hayotiy faoliyatini ta`minlash bo`yicha boshqaruv yo`nalishidagi masalalarning ijobiy yechimini topish, hamda uni hal etish hisoblanadi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, boshqaruv faoliyati yoki ixtiyoriy faoliyat inson-inson munosabati, shuningdek, insonning tashqi muhit bilan munosabatlari, tarbiyaviy munosabatlar tarzida, ya'ni shaxsning ehtiyojlari talablaridan kelib chiqib ko'zlangan maqsadni amalga oshirishdagi o'zaro aloqalar asnosida tahlil qilinadi va o'rganiladi. Faoliyat maqsadi obyektiv bo'lib, o'z o'rnida, shaxs tomonidan belgilanadi va u shaxs faoliyatining asosiy component hisoblanadi. Shuningdek, faoliyat subyektni ma'lum bir harakatga keltiruvchi sabablarni aniqlaydi va unda aniq bir shaxsning faoliyati hamda maqsadi ifodalanadi.

Ma'lumki, boshqaruv faoliyati subyektlar tomonidan lavozimi yo'nalishidagi funksiyalarni bajarishlari jarayonida amalga oshiriladi. Boshqaruv faoliyati oldindan belgilangan xatti-harakatlar majmuasi, shuningdek, boshqaruv jarayoni bosqichlari sifatida, o'rta ta'lim muassasalari rahbarlarining maqsadga yo'naltirilgan faoliyatlarining tuzilmasi boshqaruv predmetlari orqali belgilanadi.

Demak, boshqaruv o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ular maqsadga erishishda, harakatlar izchilligi bilan belgilanadi. Bu jihatlar, o'z-o'zidan maqsadga ko'ra aniqlanmaydi, balki maqsadga erishishdagi shart-sharoitlar orqali namoyon bo'ladi. Ya'ni, vaqt o'tishi bilan belgilangan maqsad o'zgarimasida, belgilangan vaqtdagi shart-sharoitlar hamda harakatlar tarkibi o'zgarib boradi.

Ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish va uning mazmunini takomillashtirish yo'nalishidagi ixtiyoriy innovatsion faoliyat o'rta ta'lim muassasalari rahbarlari boshqaruv faoliyatlarining ma'lum bir izchillikda amalga oshirilishini talab etadi. O'rta ta'lim muassasalarida boshqaruv funksiyalarini amalga oshirishni rejalashtirishda, eng avvalo, boshqaruvning maqsadi, boshqaruv funksiyalarining mazmun-mohiyati hamda vazifalari inobatga olinadi. Umumiy maqsadlarga erishishda, mazkur funksiyalarni amalga oshirish tizimini tashkil etuvchi vazifalarning bajarilish izchilligi belgilanadi hamda mazkur vazifalarni bajarishda qo'llaniladigan boshqaruv metodlari tanlab olinib, boshqaruv faoliyati boshqaruvni tashkil etish tamoyillari va qonuniyatlariga asosan amalga oshiriladi. Obyektiv boshqaruv faoliyati faqatgina maqsadga yo'naltirilgan harakatlarning to'liq to'plami yoki harakatlar zanjiri shaklida mavjud bo'ladi.

O'rta ta'lim muassasalari rahbarlari boshqaruv faoliyatlari davomida o'zlari rahbarlik qilayotgan ta'lim muassasalarining faoliyatlari, ta'lim-tarbiya jarayonining holatlari, xodimlarning o'z vazifalariga bo'lgan munosabatlari, o'zaro munosabatlar, ya'ni o'quvchi va o'qituvchilarning munosabatlari, shuningdek, umumiy maqsadga erishish uchun amalga oshirilayotgan ishlarning ko'lemi hamda samaradorligi, o'quvchilarning qiziqishi, dunyo qarashining kengayib borishi shuningdek, tashkil etilayotgan ta'lim-tarbiya jarayonlarining sifati to'g'risida yetarli ma'lumotga ega bo'lishi uchun zaruriy axborotlar to'plashlari lozim.

To'plangan ishonchli axborotlar tahlil qilinishi va umumiy holatni o'rganilishi boshqaruv faoliyatini o'zgartirish, takomillashtirishga, ya'ni o'rta ta'lim muassasalari faoliyatlari samaradorligini oshirish strategiyalarini belgilab olishga xizmat qiladi. Axborotlarga asoslangan holda, o'rta ta'lim muassasalari rahbarlarida o'z faoliyatlari samaradorligini ham tahlil qilish imkoniyati tug'iladi va shunga asosan uni takomillashtirish yo'nalishlari hamda muassasa faoliyatini yaxshilash uchun amalga oshirilishi zarur bo'lgan vazifalar belgilanadi. Belgilangan vazifalarni o'qituvchilarning bilimi, ko'nikma va malakalari, shuningdek, kasbiy tajribalariga ko'ra taqsimlash amalga oshiriladi, ya'ni, zarur hollarda, muassasalarning faoliyatlarini, ta'lim-tarbiya jarayonini rivojlantirish uchun yuqori malakali mutaxassislar (pedagog va psixologlar) jalb etiladi, shu asosda, jamoa a'zolarining

faoliyatlari muvofiqlashtiriladi. Mazkur jarayonlarda amalga oshirilgan ishlarning natijalariga va yig'ilgan ma'lumotlarga asoslangan holda o'rta ta'lim muassasalarining rivojlanish imkoniyatlari aniqlanib, belgilangan vazifalarni amalga oshirish borasida qarorlar qabul qilinadi.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, davlatimiz fuqarolarining bilim olishlari O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi bilan kafolatlangan. O'zbekiston Respublikasi yoshlari tarbiyasida ta'lim muhim ahamiyat kasb etadi. Vatan ostonadan boshlanganidek, o'quvchilarning ta'lim-tarbiyasi oiladan boshlanadi. Demak, kelajak avlodimiz hartaraflama yetuk, sog'lom, bilimli, o'z vataniga sadoqatli bo'lib yetishishi uchun har birimiz mas'ulmiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-2909-son qarori 2017-yil 20-aprel
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi ta'lim sifatini nazorat qilish Davlat inspeksiyasi faoliyatini tashkil etish to'g'risida»gi 515-sonli qarori. 2017-yil 18-iyul
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Mirziyoev Shavkat Miromonovich Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. Toshkent. "O'zbekiston" 2017
4. Ganiev E., Eshonkulov X. Matematicheskoe modelirovanie, razmesheniya i sovershenstvovaniya regional'nykh i professional'nykh uchrejeniy, na osnove mnogostupenchatoy sistema. // Umumiy o'rta ta'lim sifat va samaradorligini oshirishning nazariy-amaliy muammolari. – Samarqand, 2008, 27-28 iyun'. 2-qism. – B.158-159.
5. Ganiev E., Eshonkulov X. O modeli raschota planirovaniya potrebnosti pedagogicheskix kadrov. // Innovatsiya – 99. Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman. – Termiz: TerDU, 1999. – B.330-331.
6. G'aniev E., Eshonqulov H. Umumiy o'rta ta'lim muassasalari boshqaruvni takomillashtirishning umumiy matematik modeli. // Iqtisodiyotni modellashtirish va axborotlashtirish masalalari. Maqolalar to'plami. – T.: Kibernetika ilmiy tekshirish instituti, 2002. – №21 son. – B.106-108.
7. G'aniev E., Eshonqulov H.. Umumiy o'rta ta'lim muassasalari boshqaruv ini takomillashtirishning ayrim masalalari. Uslubiy qo'llanma. – «Fan va texnologiya», Toshkent, 2009. – 84
8. Madaniyatshunoslik .Ma'ruzalar matni, T, 2000
9. <https://hozir.org/>
10. <https://fayllar.org/>
11. <http://library.ziyonet.uz/>